



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-fevral
oylari*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 67-236-70-00*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 801 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 740 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 776,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 105,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 43,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 62,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 723,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 80,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	776,3	105,7
Guliston sh.	283,6	107,2
Shirin sh.	10,0	103,2
Yangiyer sh.	67,7	107,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	52,0	103,2
Guliston	37,0	103,5
Mirzaobod	59,8	106,9
Oqoltin	41,4	104,3
Sardoba	27,6	108,4
Sayxunobod	30,9	106,3
Sirdaryo	144,7	103,5
Xovos	21,6	103,4


2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Yangiyer sh. (**107,2** %), Guliston (**107,2** %) va Sardoba (**108,4** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanavr- fevral oylari uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, hududlar kesimida (foizda)




2024- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **105,7 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd. so'm



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 36,5 % bilan 283,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 10,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 732,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 37,1 % ga kamaydi va 43,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (99,9 %), Mirzaobod (98,6 %) va Oqoltin (99,0 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (11,3 %) va Sardoba (2,9 %), Yangiyer sh. (6,1 %), Guliston (3,5 %) tumanlarida kuzatildi.


5,6 %



94,4 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 857,5 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (2 899,4 ming. so'm), Yangiyer shahri (1 428,2 ming. so'm) va Sirdaryo (1 064,6 ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	24,5	93,4
Guliston sh.	13,0	83,6
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	2,0	121,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2,3	102,2
Guliston	1,1	2,5 m.
Mirzaobod	-	-
Oqoltin	-	-
Sardoba	0,8	164,7
Sayxunobod	-	-
Sirdaryo	5,3	112,1
Xovos	-	-


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-fevral)**














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-fevral)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 80,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 118,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 24,5 mlrd. so'mni (93,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 55,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (130,8 %).













2024 - yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 24,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (10,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>10,8 mlrd. so'm</p>  <p>44,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>3,5 mlrd. so'm</p>  <p>14,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>2,5 mlrd. so'm</p>  <p>10,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>7,1 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>7,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p> <p>1,2 %</p>

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 55,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 45,5 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 7,5 mlrd. so'mni, otlar – 2,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>23,2 mlrd. so'm</p>  <p>41,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>10,5 mlrd. so'm</p>  <p>18,8 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>11,8 mlrd. so'm</p>  <p>21,2 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>5,8 mlrd. so'm</p>  <p>10,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,1%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 628 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	25,3	107,2
Guliston sh.	11,8	107,4
Shirin sh.	0,5	107,2
Yangiyer sh.	3,6	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1,0	106,4
Guliston	1,9	106,1
Mirzaobod	1,6	106,1
Oqoltin	0,6	105,6
Sardoba	0,6	123,1
Sayxunobod	0,8	105,0
Sirdaryo	2,4	106,5
Xovos	0,5	106,9

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 25,3 mlrd. so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	93,0	100,0
Guliston sh.	24,0	25,8
Shirin sh.	0,2	0,2
Yangiyer sh.	1,6	1,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	0,3	0,3
Guliston	2,5	2,7
Mirzaobod	0,2	0,2
Oqoltin	37,9	40,8
Sardoba	1,0	1,1
Sayxunobod	0,5	0,5
Sirdaryo	24,6	26,5
Xovos	0,2	0,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (25,8 mlrd. so'm), Oqoltin (40,8 mlrd. so'm) va Sirdaryo (26,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 93,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,2 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 90,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 188,6 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 2,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,5 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 477,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 462,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,7 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 271 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 250 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Guliston sh. (110,2), Yangiyer sh. (118,3) hamda Sirdaryo (111,7) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	477,9	107,8
Guliston sh.	151,3	110,2
Shirin sh.	2,0	111,5
Yangiyer sh.	31,6	118,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	32,6	86,7
Guliston	8,4	96,1
Mirzaobod	21,8	104,1
Oqoltin	12,3	104,7
Sardoba	17,0	101,5
Sayxunobod	35,9	109,4
Sirdaryo	144,3	111,7
Xovos	20,7	105,3